XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 10-iyul VI-85-84-2-36-K/24 Kogon tumani

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori qabul qilinib, mutasaddi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlar hamda suv xo‘jaligi soha rahbarlari bir qator topshiriq va ko‘rsatmalar berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarorining 4-bandiga ko‘ra, tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda 2024-yilgi tasdiqlangan mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga teng miqdorda oshirish yuzasidan xalq deputatlari Kogon tuman Kengashiga ko‘rib chiqib, qaror tasdiqlanishida amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foiziga teng miqdorida oshirilishi hisobiga Kogon tuman maxalliy budjetining 2024 yil uchun belgilangan daromatlari va harajatlari miqdori jadval ko‘rinishida ilova qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida kun tartibidagi masala yuzasidan yuqorida bayon etilganlarga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi **Q A R O R Q I L A D I:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga muvofiq quyidagilar:

- suv xo‘jaligi tashkilotlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga suv yetkazib berish xizmatlari uchun to‘lovlar bekor qilinganligi;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tushgan tushumning 40 foizi suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, ularga tegishli obyektlarni saqlash va texnik holatini yaxshilash xarajatlariga yo‘naltirilishi;

- 2024-yilgi tasdiqlangan mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga teng miqdorda oshirish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilishi;

- suv solig‘i tushumi past bo‘lgan tuman (shahar)larda suv yetkazib berish xizmatlari xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablag‘larni irrigatsiya bo‘limlarini saqlash xarajatlari uchun mahalliy budjetlarda ajratilgan mablag‘larni tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida qayta taqsimlash bo‘yicha xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga taklif kiritish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-89-97-2-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Kogon tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-76-152-2-36-K/23-sonli qaroriga asosan 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “2024-yil uchun budjet daromadlarining mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha ajratma meyorlari”da suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumi tuman mahalliy budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Xalimov.L) hamda tuman soliq inspeksiyasi (A.Latipov)lar tomonidan tumanning 2024-yilgi tasdiqlangan mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarini suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga teng miqdorda oshirish yuzasidan bergan takliflari ma’qullansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining mazkur qarorlariga ko‘ra suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘loviga (qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq) belgilangan prognoz ko‘rsatkichi 40 foizga oshirilsin.

Bunda, ushbu prognoz ko‘rsatkichini oshirilishida qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun yil davomida suv yetkazib berish hajmini oshirilishi ko‘zda tutilganligi inobatga olinsin.

6. Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi

hisobiga tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Xalimov.L.), tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (J.Xayitov) bilan birgalikda:

- qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovidan tuman mahalliy budjetiga haqiqatda kelib tushgan mablag‘larning 40 foizini har oy yakuni bo‘yicha belgilangan muddatlarda tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasining budjetdan tashqari g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazib borilishini ta’minlasin;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Suv yetkazib berish xizmati» davlat muassasalari to‘g‘risidagi Nizom asosida suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, bunda, suv solig‘ining haqiqatda kelib tushgan tushumlaridan kelib chiqqan holda hamda suv solig‘i tushumi past bo‘lgan tuman suv yetkazib berish xizmati xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablag‘larni irrigatsiya bo‘limini saqlash xarajatlari uchun mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘larni tuman budjeti o‘rtasida qayta taqsimlash bo‘yicha xarajatlar smetasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritib borish choralarini ko‘rsin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosarlari U.Zadayevga, F.Otamurodov tuman soliq inspeksiyasi tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi (I.Amonov.) bilan birgalikda tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovlarini belgilangan muddatlarda undirish choralarini ko‘rsin.

9. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Xalimov.L.), tuman soliq inspeksiyasi (A.Latipov) tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasiga ajratilgan mablag‘larni maqsadli va samarali sarflanishi ustidan tizimli ravishda nazorat o‘rnatsin.

10. Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasiga tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Xalimov.L.) bilan tumanda suv yetkazib berish xizmati xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablag‘larni irrigatsiya bo‘limini saqlash xarajatlari uchun mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi bo‘yicha belgilangan tartibda hisobot (axborot)larni har chorakda Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiya muhokamasiga kiritib borsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Jumayev) hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari U.Zadayev va F.Otamurodavlar zimmasiga yuklansin.

12. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



DJABAROVA ZAMIRA SHUKUROVNA

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2024-yil 10-iyuldagi
VI-85-84-2-36-K/24 -son qaroriga
1-ilova

“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foiziga teng miqdorida oshirilishi hisobiga Kogon tuman maxalliy budjetining 2024 yil uchun belgilangan daromatlari va harajatlari miqdori

	Tuman mahalliy budjetining daromatlari (mln so‘m)				Tuman mahalliy budjetining xarajatlari (mln so‘m)	
№	Daromat turlari	Yil boshida belgilangan prognoz	VM-79 son qarorga asosan oshiril-gan prognoz miqdori	2024 yil uchun aniqlashtir ilgan prognoz	Hududiy budjet mablag‘i taqsimlovchisi nomi	Kogon tuman Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini moliyaviylashtirish xarajati
1	Suv resurslar dan foydalanga nlik uchun soliq	4950	2730,65	7680,65	Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi Kogon tuman Suv yetkazib berish xizmati DM	2730,65